

## ASOSIY QANUNIMIZ-KONSTITUTSIYANING AHAMIYATI

*Sarsenbaev Asadbek Albertovich*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI pedagogika fakulteti*

*Muzika yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*Kazaxbaeva Mexriban Jamalatdinovna*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI pedagogika fakulteti maktab*

*Menedjmenti yo'nalishii 1-kurs talabasi*

*E-mail: Kazaxbaevam@gmail.com*

**Annotaciya:** Davlatimiz ramzi bolgan asosiy qanunimizning jamiyattagi oz orni va Konstitutsiyaning yaratilishi

**Kalit sozlar:** konstitutsiya, jamiyat, davlat, hokimiyot, puqora, huquq, erkinlik, kodeks

Konstitutsiya deganda davlat va jamiyat rivojining asosiy yo'nalishlarini va ularning tuzilishini belgilab beruvchi asosiy qonun tushuniladi. Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotini tartibga keltiradigan eng oliy yuridik hujjatdir. Uning normalarida davlat siyosatining prinsiplari, shakl va uslublari, uni amalga oshirish mexanizmi mustahkamlanadi. Asosiy qonun o'z mohiyat - e'tibori bilan har qanday demokratik jamiyatning bosh belgilaridan biri bo'lib, unda inson, shaxs va jamiyatning huquqiy jihatlari, davlat hokimiyatining tuzilishi va uning idoralari faoliyatini tashkil etishning mezoniy qoidalari ifoda etiladi.

Konstitutsiya (lotincha: constitutio — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud precedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni qisman yozilgan bo'ladi. O'zgartirish

kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozi malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash va shahrik.) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi. Konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya konstitutsiyasi misol bo'la oladi. 2-guruhga 20-asrning 2-yarmida qabul qilingan „yangi avlod“ konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko'payishi bilan farq qiladi. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o'rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an'analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo'lib, xalqaro talablarga javob beradi. Konstitutsiyaviy qonun - bir qancha mamlakatlarda konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbalaridan biri. Ba'zi mamlakatlar (aholisi fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar, shuningdek, Ruminiya va boshqalar)da — bu konstitutsiyaga o'zgartirish kirituvchi qonun, boshqa mamlakatlar (mas, Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston va Qozog'iston)da Konstitutsiyaviy qonun konstitutsiyada ko'zda tutilgan masalalar bo'yicha qabul qilinadigan qonundur. Konstitutsiyaviy qonunlar sirasiga, avvalo, konstitutsiya kiradi va o'z yuridik maqomiga ko'ra, ular orasida eng yuqori o'rinni egallaydi. O'zRda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" qonun (1991-yil 29 dekabrda umumxalq referendumini bilan tasdiqlangan), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" qonun (1993-yil 28 dekabr), "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashqil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida" qonun (2002-yil 4-aprel) Konstitutsiyaviy qonun hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qonunlar 2 guruhga bo'linadi: 1) konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadigan Konstitutsiyaviy qonunlar; 2) Konstitutsiyaning muayyan me'yorlari mazmunini kengroq ochib beradigan va aniqlashtiradigan, xususan, muhim davlat muassasalari hamda organlari, mas, muayyan davlat parlamenti, hukumati, inson huquklari bo'yicha parlament vakili (ombudsman), referendum, sudlar va sud tizimi va boshqa davlat organlari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonunlar. Konstitutsiyaviy qonunlarning oliy yuridik maqomga ega bo'lishini belgilovchi omillar: 1) ular tartibga solib turadigan munosabatlar yoki davlat organlari faoliyati jamiyat va davlat hayotida muhim o'rin egallashi kerak; 2) ularni qabul qilishning alohida, qat'iy belgilab qo'yilgan tartibi ishlab chiqilgan bo'lishi zarur; mas, oddiy qonunlarni qabul qilish uchun parlament a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi kifoya qilsa, Konstitutsiyaviy

qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun deputatlarning kamida 2/3 qismi yoqlab ovoz berishi talab etiladi. Ba'zi davlatlarda (mas, Rossiyada) Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul etish uchun parlament yuqori palatasida deputatlarning kamida 3/4 qismi yoklab ovoz berishi hamda Prezidentning veto huquqi tatbiq qilinmasligi kerak. Konstitutsiyada joriy qonunar chiqarilishi, davlat turli organlarining qonun yaratish sohasida ish olib borishi nazarda tutiladi. Konstitutsiya qonunar va boshqa huquqiy aktlar kim tomonidan, qanday tartibda va qanday doirada chiqarilishini, ularning mazmuni qanday prinsiplarga javob berishi lozimligini belgilaydi. Konstitutsiya normalari boshqa qonunarga, shuningdek, qonuniy aktlarga nisbatan eng katta yuridik kuchga egadir. Boshqa barcha huquqiy aktlar Konstitutsiyaga to'la muvofiq ravishda qabul qilinadi

Konstitutsiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Konstitutsiyaviy huquq normalari Konstitutsiyaviy huquqninggina manbai bo'lib qolmasdan, balki davlatda mavjud bo'lgan barcha huquq tarmoqlarining jumladan, fuqarolik, ma'muriy, mehnat, jinoyat va boshqa huquq tarmoqlarining ham asosiy yuridik manbai hisoblanadi. Shu sababli Konstitutsiyaviy normalar ham bevosita, ham yuqorida sanab o'tilgan huquq tarmoqlari orqali amal qiladi.

2. Oddiy qonunlarda Konstitutsiyaga xilof normalar uchrab qolsa, ularning amal qilishi to'xtatiladi va ular qayta ko'rib chiqilguncha, bevosita Konstitutsiyaviy normalar amalda bo'ladi.

3. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan to'zgan shartnoma va bitimlari ham Konstitutsiyaviy normalarga monand tarzda to'zilmog'i lozim. Agarda mazkur shartnoma va bitimlar Konstitutsiyaga xilof tarzda to'zilganligi ma'lum bo'lib qolsa, Oliy Majlis bunday shartnomalarni ratifikatsiya qilmasligi lozim bo'ladi, ratifikatsiya qilgan taqdirda ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan noloyiq deb topiladi.

4. Davlat va uning organlari tomonidan qonunarga asosan qabul qilinadigan boshqa huquqiy aktlar ham Konstitutsiyaga muvofiq tarzda qabul qilinishi lozim.

5. O'zbekiston davlat organlari, mansabdor shaxslari, jamoat birlashmalari Konstitutsiyada ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq ravishda ish ko'radilar.

6. Konstitutsiyani aniq va og'ishmay amalga oshirish har bir fuqaro hamda O'zbekiston hududida doimiy va muvofiq tarzda yashab turgan barcha shaxslarning oliy burchidir.

7. Konstitutsiyani o'zgartirish yoki unga qo'shimchalar kiritish marosimi ham o'ziga xos

ahamiyat kasb etadi. Uni o'zgartirish faqatgina Konstitutsiya qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ tomonidan, ya'ni Respublika Oliy Majlisi tomonidan alohida marosim jarayonida amalga oshiriladi. Konstitutsiyamizda fuqarolarimizni nafaqat O'zbekiston hududida, balki uning tashqarisida ham huquqiy himoya qilish va



ularga homiylik ko'rsatish, ularning yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, dam olish, bilim olishligi kafolatlangan.

Konstitutsiyamiz o'zining tub mohiyati falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjat bo'lib, unda jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i-inson degan fikr ilgari surildi.

Konstitutsiyamizda davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning barcha prinsiplari va qoidalarini hayotimizga joriy etish ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishdan boshlanadi. Shu bois, Asosiy qonunimiz tub ma'no – mazmuniga yetib bormoq va shu asosda Konstitutsiya qoidalarini hayotimizning tarkibiy qismiga aylantirmoq barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning o'ta mas'uliyatli vazifasi, sharaflil burchidir.

Konstitutsiyamiz naqadar teran demokratik zamanga, qudratli siyosiy-huquqiy hamda ma'naviy-ahloqiy ta'sir kuchiga egaligini hayotning o'zi isbotlab turibdi. Konstitutsiyaning xuddi ana shu g'oyaviy huquqiy-mafkuraviy, ma'rifiy-tarbiyaviy salohiyatini, mazmun-mohiyatini aholi keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar ongiga sindirish maqsadida mamlakatimiz birinchi Prezidenti tomonidan 2001 yil 4 yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" farmoyishi qabul qilindi.

Darhaqiqat, jamiyatimizning barcha jabhalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning zamirida inson huquq va erkinliklariga bo'lgan e'tibor, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish kabi ezgu g'oya va bosh maqsad etib tanlanganligi bejiz emas. Bosh Qomusimizning 13-moddasida O'zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi, deb e'tirof etilgan.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimida keng ko'lamda olib borilayotgan islohotlar va tariximizda uchramagan inson huquqlarini himoya qilish davlat va nodavlat institutlarining paydo bo'lishi ushbu me'yorlarning hayotdagi amaliy tasdig'idir. O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini barpo etish, yangi shaxsni shakllantirish davlat qurilishida eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi.

O'tgan qisqa davrda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklaridan kelib chiqadigan, xalqaro andozalar talablariga asoslangan ochiq huquqiy-ijtimoiy vaziyat barpo etildi. Bu esa fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqa boshqaruv organlarida bevosita ishtiroki, shuningdek barcha mulk shakllariga asoslangan ma'muriy-xo'jalik tuzilmalari bilan turli-tuman munosabatlarni yo'lga quyishda imkoniyatlar yaratib berdi.

Konstitutsiyamizning barqarorligi, uning eng muhim prinsiplari va normalarini har bir O'zbekiston Respublikasining fuqarolari to'g'ri anglab olmog'i zarur. Chunki, u ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni, vatanparvarlik tuyg'ularini, ta'bir joiz bo'lsa, xalqning vijdoni va diyonatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, biz uchun muqaddasdir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi halqimizda vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi, davlatimiz ramzi bo'lmish O'zbekiston madhiyasi, bayrog'i va gerbida o'z ifodasini topgan baxt saodat sari yetaklaydi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlarni tizimli va uzviy olib borish taqozo etmoqda.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otishga jiddiy yondoshish lozim.

Bugungi kunda, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabussi bilan qabul qilinayotgan yangi qonunlar va ularning natijasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi, yurtimizda tinchlik va adolat hukm surayotganining natijasidir, bunda esa Konstitutsiyamiz o'rni beqiyosdir

#### **Poydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. "O'zarxiv" agentligi Axborot xizmati
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent "O'zbekiston" NMIU 2014